

## YOSHLAR HUQUQLARI VA YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA UNING MAZMUN MOHIYATI

**Fozilov G`ofurjon Dilmurodjon o`g`li**

*Andijon viloyat adliya boshqarmasi Andijon shahar adliya bo`limi FHDY bo`limi  
inspektori*

**Annotatsiya:** *Maqolada yoshlar huquqlari yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy mazmun mohiyati tahlil qilingan. Yoshlar huquqlari Bu muhim omil, bir tomondan, ana shu ko'psonli navqiron insonlarning huquqlarini yanada to'la ta'minlash choralarining dolzarbligini bildirsa, ikkinchi tomondan, barkamol yosh avlod kuch-shijoati, bilimi va salohiyatini taraqqiyot, barqarorlik hamda bunyodkorlik faoliyatiga yo'naltirish alohida ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirishning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ochib berilgan. Buyuk Mutafakkir ajdodlarimiz asarlaridagi komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy talqiniga alohida e'tibor qaratilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashning ma'naviy, huquqiy asoslari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Yangi O'zbekiston, yoshlar huquqlari, yoshlarga oid davlat siyosati, iqtidorli yoshlar, barkamol yosh avlod kuch-shijoati, uchinchi Renessans.*

## ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В КОНТЕКСТЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

**Аннотация:** *В статье анализируется основное содержание права молодежи государственной молодежной политики в условиях нового Узбекистана. Права молодежи этот важный фактор, с одной стороны, свидетельствует об актуальности мер по более полному обеспечению прав этого многонационального народа, а с другой стороны, подчеркивает особую важность направленности усилий, знаний и потенциала гармоничного молодого поколения на развитие, стабильность и творческую деятельность. В статье раскрыта роль повышения правовой культуры общества в воспитании молодежи. Особое внимание уделяется историко-философской трактовке идеи совершенного человека в произведениях наших предков-великих мыслителей. Были упомянуты духовные, правовые основы воспитания высокодуховного поколения в условиях нового Узбекистана.*

**Ключевые слова:** *Новый Узбекистан, права молодежи, молодежная политика, талантливая молодежь, энергия компетентного молодого поколения, третий Ренессанс.*

## STATE POLICY RELATING TO YOUTH AND ITS IMPORTANCE IN THE CONTEXT OF THE NEW UZBEKISTAN

**Abstrac:** *The article analyzes the main content of youth rights of the state youth policy in the conditions of the new Uzbekistan. Youth rights, this important factor, on the one hand,*

*testifies to the relevance of measures to more fully ensure the rights of this multinational people, and on the other hand, emphasizes the special importance of directing the efforts, knowledge and potential of a harmonious young generation to development, stability and creative activity. The article describes the role of improving the legal culture of society in the education of youth. Special attention is paid to the historical-philosophical interpretation of the idea of a perfect person in the works of our ancestors, great thinkers. The spiritual and legal foundations of raising a highly spiritual generation in the conditions of the new Uzbekistan were mentioned.*

**Keywords:** *New Uzbekistan, youth rights, state policy on youth, talented youth, the energy of a well-rounded young generation, the third Renaissance*

## KIRISH

“Yoshlar eng bebaho va juda muhim resurs hisoblanadi, shuning uchun ularga sarflangan sarmoya ko‘p karra miqdorlarda o‘zini qoplaydi”. BMTning «Yoshlar-2030» strategiyasidan.

O‘zbekistonda Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiya ishlab chiqishga doir tashabbusi bevosita xalqaro mazmun-mohiyatga egaligi bilan chambarchas bog‘liq. Prezidentimizning xalqaro tashabbusi butun dunyo yoshlari huquqlarini, demakki ularning to‘kis va farovon buguni hamda baxtli kelajagini ta‘minlashga qaratilgan. Yer yuzining qaysi hududida bo‘lmasin, yoshlar yanada adolatli va teng huquqli muhitda yashashni hamda eng zamonaviy imkoniyatlar va qulayliklardan foydalanishni, qolaversa, o‘zlari mansub jamiyatlardagi qarorlar qabul qilish jarayonlarida erkin ishtirok etishni xohlaydilar. Ular hozirgi davrda to‘laqonli ta‘minlanishi tobora o‘tkir muammoga aylanayotgan ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va gender tenglik bilan bog‘liq huquqlari yo‘lidagi turli g‘ovlar bartaraf etilishini haqli ravishda talab qilib chiqmoqdalar. Yoshlarning taraqqiyot sohasidagi hal qiluvchi mavqeidan kelib chiqib, ularga o‘z salohiyatlarini namoyon etishlari uchun yetarlicha bilim berish va imkoniyatlar eshigini keng ochish kerak. Xususan, yoshlar iqtisodiyot rivojiga munosib ulush qo‘sha olishlari uchun, bir tomondan, ular zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, ikkinchi tomondan, mehnat bozorida ular uchun keng yo‘l ochib berilishi shart.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarda mustaqil faoliyat, yangi davrga mos keladigan ijtimoiy-ma‘naviy xislatlarni, xususan, globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadigan milliy o‘zlikni anglashning nazariy-metodologik va amaliy asosini tashkil qiladi. Uning shu yo‘nalishdagi mohiyati siyosatshunoslik fanlari doktori S.A.Jo‘raevning yoshlar davlat siyosatining ta‘rifida ochib berilgan: «Yoshlar siyosati bu jismonan va ruhan sog‘lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a‘zosi, uyg‘un rivojlangan shaxs sifatida yetishib chiqish jarayonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiyhuquqiy, madaniy-ma‘naviy shart-sharoitlar majmuini yaratish sari maqsadli yo‘nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo‘lidir».

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining asarlari, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida qabul qilingan huquqiy normativ hujjatlar tadqiqot uchun nazariy-metodologik manba, ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik,

mantiqiylik, analiz va sintez, kompleks yondashuv kabi usullariga tayanildi.

### NATIJALAR

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 14 sentyabr kuni Dushanbe shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvida ham Markaziy Osiyo davlatlarining yoshlarga oid siyosatiga alohida e’tibor qaratdi. Davlatimiz rahbari yoshlarning bilim va malakasini rivojlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni birlashtirish, ularni yetuk malakali kadrlar qilib tayyorlash va bandligini ta’minlash maqsadida shu yo‘nalishdagi xalqaro tashkilotlar ishtirokida Markaziy Osiyo yoshlari imkoniyatlarini kengaytirish va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish markazini tashkil etishni taklif etdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Dushanbeda bo‘lib o‘tgan Maslahat uchrashuvi yakunida mintaqa yoshlari manfaatlarini ta’minlash yo‘lida yana bir muhim amaliy qadam qo‘yildi. Ya’ni, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iz Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida yoshlarga oid siyosatning umumiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bitim imzolandi.

Forumda milliy va xorijiy ekspertlar, yoshlar tashkilotlari yetakchilari, yoshlar parlamentlari, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillari – 1 ming nafarga yaqin ishtirokchi qatnashishi kutilmoqda.

Bo‘lajak Forum uning ishtirokchilari uchun zaruriy bilimlarga ega bo‘lish, o‘zaro tajriba almashish, dolzarb g‘oya va loyihalarni ro‘yobga chiqarish uchun qulay axborot-ma’rifat va amaliy muhokama-munozara maydoniga aylanadi, degan umiddamiz. Bunda xalqaro anjuman ishi davomida siyosatchilar va jamoat arboblari, ilmiy-akademik doiralar namoyandalari va tadbirkorlar o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan jonli muloqotlar muhim ahamiyat kasb etishi tayin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, deb ta’kidlagan edi. Ta’kidlash joizki, Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati ham aynan yoshlar masalasi bilan bog‘liq bo‘lgan, 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun edi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish; yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish; iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish; yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish; voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish; barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi. Iste’dodli yoshlarni aniqlash, ularni

tarbiyalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi yurtimizda o'rnak olsa arzigulik tajriba to'planishiga imkon berdi. Shu o'rinda ta'irlash joizki, iste'dodli yoshlarni izlash va ularni qo'llabquvvatlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqdalar. Masalan, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ayniqsa, ahamiyatga molikdir. Ta'kidlash joizki, ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport, tadbirkorli sohalaridagi iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rahbatlantirib borish, ularning turli sog'lom tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash vazifalari bu tashkilotning mazkur yo'nalishdagi dolzarb vazifalaridan biri qilib belgilangan. Yoshlarning bilim darajasi, kasbiy malakasi, ma'naviy va ruhiy barkamollik kabi fazilatlar va ijtimoiy sifatleri butun jamiyatning rivojlanish darajasiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lib yashashga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Alloma Abdulla Avloniy "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur? degan savolga "Birinchi - uy tarbiyasi. Bu vazifa ona zimmasidadir. Ikkinchi – maktab va madrasatarbiyasi. Ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir" deb javob berganlar. Bu so'zlar zamirida barchaning farzand tarbiyasiga mas'ulligi ko'rinib turibdi. Yoshlar masalasini o'rganish kishilik jamiyati, ijtimoiy munosabatlar, millatlar va davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki yoshlar masalasi, birinchidan, sivilizatsiya vujudga kelgandan beri mavjud va barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida ular bilan yonma-yon keladi. Ikkinchidan, tafakkur tarixida barcha faylasuflar, mutafakkirlar, davlat arboblari, shoiru adiblar farzand, yoshlar masalasiga oid o'z qarashlarini bayon qilganlar. Shu ma'noda, ulug' yunon faylasufi Suqrotning "O'zligingni angla" degan da'vati ham insonning o'z nasl-nasabini, hayot mazmunini, kishining kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat va majburiyatini anglashga qaratilgan chaqiriqdir. Har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-sodatga, insonparvarlik g'oyalari munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, keyingi yillarda ayrim yoshlarda millatga, Vatanga foyda keltirishni o'ylash, mustaqillikni mustahkamlashda foydali inson bo'lib yetishish hissi maxsus, ilmiy asosda shakllantirilmaganligi tufayli shaxsiy manfaatni o'ylash, yengil yo'llar bilan to'la-to'kis hayotga intilish hissi namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ayrim fuqarolar orasida ma'naviy cheklanganlik, dunyoqarashning torligi, milliy odob me'yorlariga rioya qilmaslik, so'z va ish orasidagi tafovut, milliy g'urning sustligi, shu kabi "ommaviy madaniyat"ning boshqa noxush ko'rinishlari uchrab turadiki, ularni birgalashib bartaraf qilish lozim. Bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi, milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustivordir. Bu tamoyillarga asoslangan ezgu g'oyalar umuminsoniy manfaatlar, bashariyatning asriy orzusi bo'lgan yorug' kelajak uchun xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida ta'kidlab o'tganidek, "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Rennans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Rennansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz.

Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar” [3]. Ma‘lumki, “milliy o‘z-o‘zini anglash – har bir millat (elat)ning o‘z-o‘zini real sub’ekt, muayyan moddiy va ma‘naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf-odatlar, an‘analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib yetishga milliy o‘z-o‘zini anglash deyiladi” [8]. Mafkuraviy immunitet – bu, sodda qilib aytganda, insonning o‘z istak-orzu, maqsad-intilishlariga mutlaqo zid, yot, zararli, begona mafkuraviy tahdidlarga qarshilik ko‘rsata olish salohiyati. “Mafkuraviy immunitet – falsafa: qomusiy lug‘atida –ma‘naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo‘l keladi” deyiladi. Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog‘cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo‘lga qo‘yilsagina har bir millat sog‘lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo‘ladi. Immunitet esa, o‘z navbatida, odamni to‘g‘ri yo‘ldan “ozish”dan, turli yo‘llarga adashib, keyin pushaymon bo‘lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa– parokandaliklardan, parchalanishlardan, sinfiy, mahalliy yoki boshqa bo‘linishlardan asrab turadi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma‘naviy birligi, ma‘naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Mafkuraviy immunitet o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lmaydi. Uning namoyon bo‘lishi uchun ichki yoki tashqi g‘oyaviy, fikriy ta’sir bo‘lishi kerak [9-16]. Al Forobiyning fikricha, “...fozil jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o‘rni, ya’ni kim bo‘lishidan qat’iy nazar «fozil kishi», «fozil inson» o‘z davlatining barcha qonun- qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o‘z kasbining ustasi, lozim bo‘lganda Vatan uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir biriga hurmatda bo‘ladi. Ota-ona va farzand, ustozu- shogird o‘rtasida Sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo‘ladi. Avvalo bunday fikr yuritishning o‘zi bobolarning ma‘naviy darajasi naqadar yuksak bo‘lganligini va albatta bunday fikr aytish bu borada ko‘p asrlik me‘roslarni o‘rganish natijasida vujudga kelishini ta’kidlash joiz.

### XULOSA

Davlatning qudratini belgilaydigan qator omillardan biri, shubhasiz, ma‘nan yetuk, jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Shu ma‘noda, bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash naqadar muhim, mas’uliyatli vazifa ekani barchamizga ayon. Yoshlarga, bolalarga e’tibor, darhaqiqat, kelajakka qo‘yilgan sarmoyadir. Vaholanki, kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish farzandlarimizning faol ishtiroki, qo‘llab-quvvatlashi orqaligina to‘laqonli amalga oshar ekan, ma‘naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘g‘il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ham ta’minlashiga shubha yo‘q. Biz ajdodlarimiz Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar bo‘lganligi, shuningdek, ularning asarlari jahon fani va madaniyatida munosib o‘rin egallaganligi bilan cheksiz faxrlanishga haqlimiz. Shu bilan birga bizning beqiyos ma‘naviy boyligimiz insoniyat tomonidan to‘plangan eng ilg‘or bilim va tajribalar bilan hamohanglikda rivojlanishini xohlaymiz. Aynan shunday qarash va yondashuv bizni doimo oldinga harakat qilishimiz uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

## REFERENCES:

1. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun <https://lex.uz/docs/3026246>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeevbmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumidagi ma'ruzas // [https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagannutqi\\_197662](https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagannutqi_197662)
4. Жураев С.А. Особенности формирования государственной молодежной политики Республики Узбекистан в переходный период: теория и практика. Ар.дисс...док.политол.н.-Т., 1994. -С.17. Т.: Фафур Гулом, 1993. Б.69
5. Falsafa: qomusiy lug'at: (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). –Т.: “Sharq” nashriyot-matbuot aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004 yil.
6. Khajieva, I., Khujaniyazova, G., Kenjaeva, K., & Jumaniyozov, F. (2020). Foreign language competenceformation of the future teacher of vocational education in the information and educational environment. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 360-365.
7. Zhabborova, O. I., & Kenjaeva, H. P. (2018). Bases of gender equality of rights in Uzbekistan. *Международный журнал гуманитарных и естественных наук*, (5-2).
8. Kenjayeva, X. (2021). Milliy ma'naviy merosimizda ta'lim-tarbiya masalalari. *Общество i innovatsii*, 2(6/S), 18-24.
9. Internet tarmog'i orqali O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis qununchilik palatasining rasmiy veb saytidagi ma'lumotlardan foydalanildi.